

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:  
№ 189  
"29" 08 2022 yil



**MASHINALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI  
fanining**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 600000 – Xizmatlar sohasi  
**Ta'lim sohasi:** 610000 – Xizmat ko'rsatish sohasi  
**Ta'lim yo'nalishlari:** 5610600 -Xizmat ko'rsatish texnikasi va  
texnologiyasi (xizmat turlari bo'yicha)

Qarshi – 2022 yil

2022/9/16 14:56

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil «28» 06 dagi 11 -sonli yig'ilishida muhokama etilib, ma'qullangan o'quv dasturi va 2022-2023 o'quv yili o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Chorshanbiyev R.X.** - *"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Fanning ishchi o'quv dasturi "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrasi yig'ilishida (bayon № 1, 24.08. 2022y.), "Muhandislik texnikasi" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1, 26.08 2022y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 1, 29.08 2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i  dots. **Sh. Turdiyev**

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi  dots. **E. Eshdavlatov**

Kafedra mudiri  dots. **Z. Batirov**

2022/9/16 14:56

## KIRISH

Respublikamiz Oliy o'quv yurtlarida turli bilimlar sohasi yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislarning bilim darajasi jahon miqyosida qo'yiladigan talablarga javob berishi uchun davlatimiz tomonidan Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga, uni rivojlantirish va dunyo miqyosi darajasiga olib chiqishiga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqadigan mutaxassislar fundamental ilmiy bazaga, ilmiy yaratuvchilikka, zamonaviy informatsion texnologiyalarga ega bo'lishlari, tegishli sohalaridagi ilm-fan yutuqlarini tanlay bilishlari bilan birga ularning natijalarini ishlab chiqarishda keng joriy etishlari va iqtisodiy samara olishda faol ishtirok etishlari lozim.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti -5610600-Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlash mazmuni va saviyasining majburiy minimumida bo'lgan talablarga muvofiq tuzilgan.

Ushbu dasturda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlarida va foydalaniladigan mashinalar kompleksini, mashina-traktor agregatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini, mashina-traktor agregatlarini komplektlashni, agregatlarning harakatlanish usullarini, yerga asosiy va ekishdan oldingi ishlov berishda, o'g'itlashda, ekinlarni yetishtirish va hosilni yig'ishda, ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan transport ishlarini hamda davlat va hukumatning agrosanoat kompleksini rivojlantirish qarorlarini mashinalarga xizmat ko'rsatish korxonalarida joriy etish masalalari, mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning fan va texnika yutuqlari asosida yoritib berish ko'zda tutilgan.

## **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

“Mashinalardan foydalanish asoslari” fanini o'rgangan talaba: qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlarida va foydalaniladigan mashinalar kompleksini, mashina-traktor agregatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini, mashina-traktor agregatlarini komplektlashni, agregatlarning harakatlanish usullarini, yerga asosiy va ekishdan oldingi ishlov berishda, o'g'itlashda, ekinlarni yetishtirish va hosilni yig'ishda, ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan transport ishlarini hamda davlat va hukumatning agrosanoat kompleksini rivojlantirish qarorlarini mashinalarga xizmat ko'rsatish korxonalarida joriy etish masalalari, mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning fan va texnika yutuqlari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

“Mashinalardan foydalanish asoslari” fanini o'rganishda o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (Oliy matematika, Fizika, Nazariy mexanika), umumkasbiy (Mashina va mexanizmlar nazariyasi, Mashina detallari, Traktorlar va qishloq xo'jalik texnikasi detallarini qayta tiklash metodlari, Loyihalash jarayonini avtomatlashtirish, Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarining texnologik jihozlari va Mashinalar puxtaligi asoslari) va ixtisoslik (Traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va jihozlari, Xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, Yonilg'i va moylash materiallari va h.k.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

“Mashinalardan foydalanish asoslari” fani bo'yicha talaba olgan ma'lumotlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlarida mashinalar kompleksidan foydalanishni, mashina-traktor agregatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga tayyor bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

## **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

“Mashinalardan foydalanish asoslari” fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuterlardan, internet tizimidagi ma’lumotlardan oqilona foydalanish; audio va video texnikasidan foydalanib, dunyo miqyosidagi yetakchi mutaxassislarining ma’ruza, amaliy ishlarni namoyish etish ko‘zda tutiladi.

Fanni o‘qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan, jumladan muhokama-munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish, bahs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog‘lam), baliq skeleti, ajurli arra, FSMU, bumerang, skarabey, kaskad, Veyer, pinbord, “T-sxema”, delfi, blis-so‘rov, “Nima uchun?” texnologiyalari, ma’ruza-anjuman texnikasi, BBXB (Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim), konseptual va insert jadvallardan keng foydalaniladi.

Fan bo‘yicha ma’ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo‘stlik mamlakatlarida yangi chop etilib. "Internet" tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ma’ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma’ruzalarni o‘tishda elektron ma’ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida elektron mashqlar va masalalar to‘plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan bo‘yicha kompyuter o‘yinlari, test savol-javoblardan foydalaniladi.

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikasiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan

maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**“Mashinalardan foydalanish asoslari” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

Umumiy o'quv soati                      **116 soat**

Shu jumladan:

Jami auditoriya soatlari                      **56 soat**

Ma'ruza                                              **30 soat**

Amaliy mashg'ulotlar                      **26 soat**

Laboratoriya

Kurs loyihasi

Mustaqil ta'lim                                      **60 soat**

| №  | Bo'lim va mavzular nomi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Ma'ruza | Amaliy | Laboratoriya | Mustaqil ish |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|--------|--------------|--------------|
| 1. | <b>Kirish. Qishloq xo'jaligida texnikalardan foydalanishning ahamiyati. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlari</b><br>Kirish.<br>“Mashinalardan foydalanish asoslari” fanining maqsadi va vazifalari. Fanga oid asosiy tushuncha va ta'riflar.<br>O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish borasidagi muhim vazifalar<br>Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarida texnikalardan foydalanishning ahamiyati<br>Ishlab chiqarish jarayonlari va ularning turlari<br>Texnologik karta tuzish<br>Qishloq jo'jalik ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash | 2       |        |              |              |
| 2. | <b>Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mashinalar kompleksi. Mashina-traktor agregatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari</b><br>Mashina-traktor agregatlarining klassifikatsiyasi<br>Mashinalar kompleksi<br>Traktor va qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish sifat ko'rsatkichlari<br>Dvigateldan foydalanish ko'rsatkichlari<br>Traktor ilgagidagi tortish kuchi<br>Traktor agregatlarining harakat tezligi<br>G'ildirakli traktorlarning tortish sifatini yaxshilash usullari<br>Traktorning quvvat balansi va foydali ish koeffitsienti                                        | 2       | 2      |              | 4            |

|    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |   |   |  |   |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|--|---|
| 3. | <b>Mashina-traktor agregatlarini komplektlash</b><br>Agregatlarni komplektlash tartibi va sharoiti<br>Mashina va uskunalarni tortish qarshiligi<br>Mashina-traktor agregatini hisoblash<br>Tirkama mashina va uskunalardan agregat tuzish<br>Quvvat olish validan foydalanib agregat tuzish<br>Osma va yarim osma mashina va uskunalardan agregat tuzish                                                                                                                                                                                                                              | 2 | 2 |  | 4 |
| 4. | <b>Agregatlarning harakatlanish usullari</b><br>Agregatlarning harakatlanish elementlari va kinematikasi<br>Agregatlarning burilish turlari<br>Agregatlarning harakatlanish usullari<br>Burilish maydonchasining enini va paykallarning o'lchamini aniqlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2 | 4 |  | 4 |
| 5. | <b>Mashina-traktor agregatlarining ish ko'rsatkichlari</b><br>Mashina-traktor agregatlarining unumdorligi<br>Agregatdan foydalanishdagi sarf-harajatlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 2 | 4 |  | 4 |
| 6. | <b>Yerga asosiy va ekishdan oldingi ishlov berishda texnikadan foydalanish</b><br>Yerga ishlov berish usullari<br>Yerga ishlov berish va yerni suv eroziyasidan saqlash mashinalari kompleksi<br>Yerni shudgorlash.<br>Yerni shudgorlash agregatlaridan foydalanish<br>Ekishdan oldin yerga ishlov berish va unga qo'yilgan agrotexnik talablar<br>Yerni boronalash, mola bostirish va yumshatish agregatlari                                                                                                                                                                         | 2 | 4 |  | 4 |
| 7. | <b>O'g'itlashda texnikadan foydalanish</b><br>O'g'itlash to'g'risida ma'lumotlar.<br>Yerni organik, mineral va suyuq o'g'itlash<br>Ekin ekish bilan bir paytda o'simliklarni o'g'itlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 2 |   |  | 4 |
| 8. | <b>Don ekinlarini yetishtirish va hosilni yig'ishda texnikadan foydalanish</b><br>Urug' tayyorlash va ekishga qo'yilgan talablar.<br>Ekish agregatlarini komplektlash va tayyorlash.<br>Ekish usullari. Ekish agregatlarini ishlatish<br>Donli ekinlarni parvarish qilish<br>G'alla hosilini yig'ishdagi agrotexnik talablar.<br>O'rim-yig'im agregatlarini komplektlash, ishga tayyorlash va rostdash<br>O'rim-yig'im agregatlarining yurish usullari. Uzun va kalta poyali, tib qolgan, o't bosgan va nam g'allani o'rib-yig'ib olish.<br>Sholi yetishtirish va o'rib-yig'ib olish. | 4 | 2 |  | 4 |
| 9. | <b>Paxta yetishtirish va hosilni yig'ishda texnikadan foydalanish</b><br>Chigitni ekishga tayyorlash va ekishga qo'yilgan talablar.<br>Chigit ekish seyalkalarini komplektlash va tayyorlash<br>Chigitni ekish usullari va ekish<br>Paxta ko'chatini parvarish qilish<br>G'o'zani difolyatsiya qilish<br>Paxta terimidagi agrotexnik talablar<br>Paxta terish mashinalarini komplektlash, ishga tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonida rostdash                                                                                                                                 | 2 | 4 |  | 4 |



|              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |           |           |  |           |
|--------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|--|-----------|
| 10.          | <b>Makkajo‘xori yetishtirish va o‘rib-yig‘ib olishda texnikadan foydalanish</b><br>Makkajo‘xorini ekish<br>Makkajo‘xorini parvarish qilish<br>Makkajo‘xorini o‘rib-yig‘ib olish                                                                                                                                                                                                                     | 2         |           |  | 4         |
| 11.          | <b>Kartoshka yetishtirish, yig‘ib olishda texnikadan foydalanish</b><br>Yerni ekishga tayyorlash<br>Kartoshkani ekish<br>Kartoshkani parvarish qilish.<br>Kartoshkani yig‘ib olish<br>Urug‘lik yetishtirish                                                                                                                                                                                         | 2         |           |  | 6         |
| 12.          | <b>Oziqabop o‘tlarni yetishtirish va yig‘ib olishda texnikadan foydalanish</b><br>Oziqabop o‘tlarni yetishtirish va yig‘ib olishda ishlatiladigan texnikalar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar<br>O‘tlarni pichan uchun o‘rib olish<br>O‘tlarni senaj uchun o‘rib-yig‘ib olish<br>O‘tlarni vitaminli o‘t uni tayyorlash uchun o‘rish<br>O‘tlarni silos bostirish uchun o‘rish                          | 2         |           |  | 6         |
| 13.          | <b>Ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishni mexanizatsiyalash</b><br>Zararkunandalarga qarshi kurashishning ahamiyati.<br>Zararkunandalarga qarshi kurashish tadbirlari<br>Zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatiladigan mashinalar<br>Zararkunandalarga qarshi kurashni tashkil qilish                                                                                                      | 2         |           |  | 6         |
| 14.          | <b>Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan transport ishlari</b><br>Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida transport ishlarining ko‘rsatkichlari<br>Ekish va o‘simliklarni parvarish qilish jarayonida bajariladigan transport ishlari<br>Hosilni yig‘ish jarayonida bajariladigan transport ishlari<br>Transport ishlarini bajarishdagi yonilg‘i-moylash materiallarining sarfi | 2         | 4         |  | 6         |
| <b>Jami:</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>30</b> | <b>26</b> |  | <b>60</b> |

## ASOSIY QISM

### Ma’ruza mashg‘ulotlari

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>1-ma’ruza. Kirish. Qishloq xo‘jaligida texnikalardan foydalanishning ahamiyati. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish jarayonlari.</b></p> <p>Kirish. “Mashinalardan foydalanish asoslari” fanining maqsadi va vazifalari. Fanga oid asosiy tushuncha va ta’riflar. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish borasidagi muhim vazifalar. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlarida texnikalardan foydalanishning ahamiyati. Ishlab chiqarish jarayonlari va ularning turlari. Texnologik karta tuzish. Qishloq jo‘jalik ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash.</p> <p><b>Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:</b> dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, Q1, Q2</p> |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>2-ma’ruza. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan mashinalar kompleksi. Mashina-traktor agregatlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari.</b></p> <p>Mashina-traktor agregatlarining klassifikatsiyasi. Mashinalar kompleksi. Traktor va qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish sifat ko‘rsatkichlari. Dvigateldan foydalanish ko‘rsatkichlari. Traktor ilgagidagi tortish kuchi. Traktor agregatlarining harakat tezligi. G‘ildirakli traktorlarning tortish sifatini yaxshilash usullari. Traktorning quvvat balansi va foydali ish koeffitsienti</p> <p><b><i>Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:</i></b> dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Aqliy hujum, ajurali arra, baliq skeleti, munozara.</p> <p><b><i>Adabiyotlar:</i></b> A1, A2, A3, Q1, Q2, Q3</p>  |
| <p><b>3-ma’ruza. Mashina-traktor agregatlarini komplektlash.</b></p> <p>Agregatlarni komplektlash tartibi va sharoiti. Mashina va uskunalarni tortish qarshiligi. Mashina-traktor agregatini hisoblash. Tirkama mashina va uskunalardan agregat tuzish. Quvvat olish validan foydalanib agregat tuzish. Osma va yarim osma mashina va uskunalardan agregat tuzish.</p> <p><b><i>Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:</i></b> dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.</p> <p><b><i>Adabiyotlar:</i></b> A1, A2, A3, Q1, Q2, Q3</p>                                                                                                                                                                          |
| <p><b>4-ma’ruza. Agregatlarning harakatlanish usullari.</b></p> <p>Agregatlarning harakatlanish elementlari va kinematikasi. Agregatlarning burilish turlari. Agregatlarning harakatlanish usullari. Burilish maydonchasining enini va paykallarning o‘lchamini aniqlash.</p> <p><b><i>Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:</i></b> dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.</p> <p><b><i>Adabiyotlar:</i></b> A1, A2, A3, Q1, Q2, Q3</p>                                                                                                                                                                                                                                                     |
| <p><b>5-ma’ruza. Mashina-agregatlarining ish ko‘rsatkichlari.</b></p> <p>Mashina-traktor agregatlarining unumdorligi. Agregatdan foydalanishdagi sarf-xarajatlar.</p> <p><b><i>Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:</i></b> dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.</p> <p><b><i>Adabiyotlar:</i></b> A1, A2, A3, Q1, Q2, Q3</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
